



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SOLIQ QO‘MITASINING
BUXORO SOLIQ TEXNIKUMI DIREKTORINING
B U Y R U G‘I**

2021 yil « ____ » _____

_____ -son

**Buxoro soliq texnikumi ichki-tartib
hamda jamoa a‘zolari va
o‘quvchilarning odob-axloq
qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustda “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli Qarori hamda o‘quvchilarning bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, xavfsizligini ta‘minlash, ularning mas‘uliyatini yanada oshirish, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga, fuqarolarning huquq va erkinliklariga qat‘iy rioya qilish ruhida tarbiyalash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. Buxoro soliq texnikumi ichki-tartib qoidalarini 1-ilovaga, texnikum jamoa a‘zolari va o‘quvchilarining odob-axloq qoidalarini 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. **Direktor o‘rinbosarlari (O‘.Boltayev, A.Niyozov), ichki nazorat inspektori (B.Qurbonov), kadrlar bo‘yicha inspektor v.v.b (U.Narziyev)ga:**

odob-axloq qoidalarini bilan belgilangan talab va qoidalarga o‘quvchilar tomonidan og‘ishmay rioya etilishini nazorat qilish va doimiy rioya etilishi shart bo‘lgan hujjat sifatida mukammal o‘rganilishini ta‘minlash;

o‘quvchilar tomonidan turli ko‘rinishdagi salbiy holatlar sodir etilishining oldini olishga hamda ularga sabab bo‘layotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni kuchaytirish va ushbu yo‘nalishdagi ishlarni samarali tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

3. Odob-axloq qoidalarini normalarining buzilishi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi hamda guruh rahbarlari guruh o‘quvchilarining intizomi va axloq-odobi uchun bevosita mas‘ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

4. Ushbu buyruqning bajarilish nazoratini o‘z zimmasida qoldiraman.

Direktor:

Sh.Izzatov

BUXORO SOLIQ TEXNIKUMI ICHKI TARTIB-QOIDALARI

Mazkur ichki tartib-qoidalarini Buxoro soliq texnikumida o'quv va mehnat intizomini mustahkamlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, texnikumning ma'muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o'qituvchilari va o'quvchilarining o'zaro munosabatlarini, unda amal qilinadigan tartib-intizom, odob-axloq tamoyillari, rioya etish shart bo'lgan xulq-atvor qoidalarini va majburiyatlarini belgilab beradi.

I. Ichki tartib-qoidalarining asosiy maqsadi

1. Quyidagilar mazkur ichki tartib-qoidalarining asosiy maqsadi hisoblanadi:
2. Yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his etadigan, zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarga ega shaxslarni tayyorlash;
3. O'quvchilarning ma'naviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularni turli yot g'oya va mafkuralardan saqlash hamda himoya qilish;
4. Yoshlar orasida odob-axloqni buzish, zo'ravonlik, behayolik, shafqatsizlikni tashviqot va amalga oshirishga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarning oldini olish;
5. O'quvchilarga ichkilikbozlik, kashandalik, giyohvandlik illatlaridan, yot diniy ekstremistik ta'sirlardan, "Ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlaridan himoyalashida ko'maklashish.

II. Buxoro soliq texnikumining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o'qituvchilari hamda talaba-o'quvchilarining o'zaro munosabatlari tamoyillari

1. Buxoro soliq texnikumining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o'qituvchilari, talaba-o'quvchilarining o'zaro munosabatlari hamjihatlik, bir-biriga ishonch, hurmat, g'amxo'rlikka hamda ahil-inoqlikka asoslanishi zarur.
2. Ta'lim muassasasida umume'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslik bilan ifodalanuvchi behayo so'zlardan foydalanish taqiqlanadi.
3. Ta'lim muassasasi o'quvchilarining kiyim-boshi quyidagi talablarga javob berishi, ya'ni:
4. O'g'il bolalar qora kostyum-shim, oq ko'ylak va galstukda, qiz bolalar qora kostyum-yubka (yubkaning quyi chegarasi tizzadan past), oq ko'ylak (kofta)da bo'lishlari;
5. Oq (qiz bolalar uchun) yoki qora (jigarrang) rangli poyafzalda;
6. O'quvchilar ta'lim muassasasi binolari ichida bosh kiyimsiz yurishlari lozim.
7. Ta'lim muassasasiga ob-havo sharoitiga qarab ustki kiyimlarda (palto, plash, kurtka va h.k.) yoki issiq kunlarda kostyumsiz kelishga ruxsat etiladi.

8. Ta'lim muassasasi hududiga atrofdagilar diqqatini tortadigan, shaffof materialdan tikilgan, tananing yelka, ko'krak, qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, haddan ziyod tor, shuningdek ibodat liboslarida kelishga ruxsat etilmaydi.

9. Ta'lim muassasasida turli taqinchoqlar bilan, tana qismlaridagi rasmlar tasvirini namoyish qilib yurish, o'tkir hidli atir-upalardan foydalanish man etiladi.

10. O'quvchilar ta'lim muassasasida belgilangan kiyim-boshda ozoda, o'g'il bolalarning sochlari kalta olingan, qizlarning sochlari ixcham turmaklangan holatda bo'lishi lozim.

11. Ta'lim muassasasidagi ommaviy tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlar)da jamoat tartibiga rioya etilishi va shovqin solinmasligi shart.

12. Ushbu tadbirlarda so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish lozim, zarurat taqozo etganda, bir notiq o'z so'zini tugatganidan so'ng zaldan chiqish mumkin.

13. Binolarga kirish va chiqish joylarida talaba-o'quvchilar pedagog-o'qituvchi va xodimlarni, erkaklar ayollarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

14. Ta'lim muassasasining binolariga kirayotgan har bir kishi binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ochiq holda ko'rsatib o'tishi zarur.

15. O'quvchilar texnikum hududida yo'lakning o'ng tomonidan yurishlari, odob-axloqning milliy an'alariga asoslangan holda salom-alikda bo'lishlari zarur.

III. Ta'lim muassasasida quyidagilar:

1. Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan, shuningdek ta'lim muassasasining ichki faoliyatiga doir muammo va masalalarni Internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish;

2. Kompyuter, mobil telefonlarida va o'zaro munosabatlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek turli kinofilmlar, diniy targ'ibotlar, behayo suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib etuvchi har qanday materialni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib etish;

3. O'quv mashg'ulotlariga, xodimlarning mehnat faoliyatiga, o'quvchilarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish, shuningdek radiopriyomnik, televizor, magnitofon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalaridan maqsadsiz foydalanish;

4. Har qanday huquqbuzarlik sodir etish, shu jumladan tuhmat, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, giyohvand va psixotropik moddalarni, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazish taqiqlanadi.

5. Ta'lim muassasasining ma'muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o'qituvchilari mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq ish vaqtida ish joylarida bo'lishlari lozim.

6. Ta'lim muassasasi hududida tartib-intizomni saqlash uchun ma'muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o'qituvchilardan iborat jamoatchilik kengashi bilan kelishilgan holda

navbatchilik tashkil etiladi. Navbatchilikning vazifalari va muddatlari ta'lim muassasasi rahbariyati tomonidan belgilanadi.

IV. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagog-o'qituvchilar va talaba-o'quvchilarning o'zaro munosabatlari

1. Pedagog-o'qituvchi auditoriyaga kirganida barcha o'quvchilar o'rinlaridan turib salomlashishlari, so'ngra o'z joylarini egallashlari lozim.

2. Pedagog-o'qituvchilar nojo'ya xatti-harakatlari bilan dars mashg'ulotlariga xalaqit berayotgan o'quvchilarni tartibga chaqirishi, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab holatlarning oldini olishi va bu haqda ta'lim muassasasi rahbariyatini xabardor qilishi lozim.

V. Pedagog-o'qituvchilarning ichki tartib-intizom va odob-axloqqa oid majburiyatlari

1. Ta'lim muassasasining ma'muriy-boshqaruv xodimlari va pedagog-o'qituvchilariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

2. Odob-axloq qoidalariga rioya qilishda talaba-o'quvchilarga namuna bo'lish;

3. Ta'lim muassasasi manfaatlariga zid bo'lgan xatti-harakatlardan o'zlarini tiyish;

4. Biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, zudlik bilan u haqida ta'lim muassasasi rahbariyatiga xabar berish;

5. Ta'lim muassasasining sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarning oldini olish;

6. Ta'lim muassasasi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik;

7. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish;

8. Yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda yot diniy va ekstremistik ta'sirlardan, "Ommaviy madaniyat"ning salbiy xurujlaridan ogoh etib borish;

9. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish;

10. Biror-bir masala yuzasidan ta'lim muassasasi rahbariyatiga o'zaro hurmat (subordinatsiya) tamoyili asosida murojaat qilish.

VI. O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari

1. Ta'lim muassasasi talaba-o'quvchilariga quyidagi majburiyatlar yuklatiladi:

a) ta'lim muassasasida:

hududga kirish va chiqishda talabalik (o'quvchilik) guvohnomasini mas'ul xodimlarga ko'rsatishi;

hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat maxsus idish (urna)larga tashlash;

o'quv mashg'ulotlari vaqtida auditoriyadan sababsiz chiqmaslik;

ta'lim muassasasi mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi va h.k.)ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

kiyinish va o'zaro suhbat madaniyatiga rioya qilish;

tinchlikni saqlash;

narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlari iste'mol qilinishi hamda tarqatilishiga qarshi kurashish;

b) auditoriyada:

o'quv mashg'ulotlari vaqtida darsga aloqador bo'lmagan masalalarda gaplashmaslik;

jihozlarga madaniy munosabatda bo'lish, partalarga yozmaslik;

qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;

ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslik;

maxsus formada bo'lishlari;

v) umumiy ovqatlanish joylarida:

taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;

tirbandlik holatida pedagog-o'qituvchilar, ayollar, yoshi kattalarga va boshqa talaba-

o'quvchilarga hurmat ko'rsatish;

ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;

umumiy ovqatlanish shoxobchasida belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish;

g) axborot resurs markazida:

axborot-resurs markazi xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish;

kitoblar, kompyuter vositalari va boshqa jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

baland ovozda so'zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;

qog'oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;

kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilish;

d) o'quvchilar turar joylarida:

mavjud jihozlarni asrash, ularga zarar yetkazmaslik;

elektr energiyasi, gaz va suv resurslaridan tejamkorona (oqilona) foydalanish;

sanitariya va gigiyena xonalaridan foydalanish qoidalariga amal qilish;

o'quvchilar turar joyida o'rnatilgan tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilish;

y) sport majmualarida:

sport majmuasiga maxsus kiyim va poyafzallarda kirish;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

mashg'ulotlardan keyin sport inventarlarini mas'ul xodimlarga qayta topshirish;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilish;

j) madaniyat saroyi va boshqa ommaviy tadbirlar o'tkazish joylarida:

o'rindiqlar va boshqa jihozlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

ommaviy tadbirlar vaqtida hushtak chalmaslik, shovqin solmaslik, tadbir tugashidan oldin sababsiz chiqib ketmaslik;

o'rindiqlarda to'g'ri o'tirish, bir-biri bilan gaplashmaslik, yon atrofdagilarga xalaqit bermaslik lozim.

2. O'quvchilar:

turli davralarda o'zining namunaviy xulqi va bilimi bilan ta'lim muassasasi haqida yuksak ijobiy taassurot hosil qilishga intilishi;

ta'lim muassasasi va davlat soliq xizmati organlarining manfaati, uning sha'ni, obro'si hamda nufuzi to'g'risida qayg'urishi, ularni saqlab qolishga jonkuyarlik qilishi va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishi shart.

3. Ta'lim muassasasi xodimlari va o'quvchilari odob-axloqida quyidagilar man etiladi:

ta'lim muassasasi xodimlari va o'quvchilarining shaxsiyati va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilish;

ta'lim muassasasi xodimlari va o'quvchilari ustidan turli ig'vo, g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;

o'quvchilar bilan o'z hamkasblarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;

o'quvchilarni o'quv mashg'ulotlardan asossiz chiqarib yuborish;

o'quv mashg'ulotlarida tijorat reklamasi o'tkazish;

diniy ekstremistik tashviqot olib borish;

ta'lim muassasasiga giyohvand moddalar, spirtli ichimliklar ta'sirida yoki o'zgacha tarzda mast ahvolda, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilmagan holda kelish;

ta'lim muassasasi hududida spirtli ichimliklar ichish va tamaki mahsulotlarini chekish;

qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida suhbatlashish;

pedagog-o'qituvchilar va xodimlar bilan boshqalarning bahosini muhokama qilish;

yolg'on gapirish, g'irromlik yoki pedagog-o'qituvchilarni chalg'itish bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlar qilish;

pedagog-o'qituvchilar, xodimlar, o'quvchilarga nisbatan hurmatsizlik qilish;

hududga pichoq, xanjar, pakki, bita sog'lig'iga ta'sir etuvchi kimyoviy va pirotexnik moddalar, maxsus sachratguvchi gaz, ma'naviyati va xulqiga xavf solishi mumkin bo'lgan boshqa predmetlarni olib kirish, tayyoplash, saqlash va ulardan foydalanish; (DSQning 2015-yil 02-maydagi 144-sonli buyrug'i asosida o'zgarish)

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib-taomillarni bajarish vaqtida boshqa shaxslardan yordam olish, o'zgalarga yordam ko'rsatish;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirish;

mashg'ulotlarni sababsiz o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;

mashg'ulotlar vaqtida pedagog-o'qituvchining ruxsatisiz auditoriyadan chiqib ketish;

boshqa talaba-o'quvchining sa'y-harakatlariga qasddan ziyon yetkazish;

moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan namoyish qilish.

VII. Ta'lim muassasasida mobil telefonlaridan foydalanish

1. Ta'lim muassasasida mobil telefonlaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 21-maydagi 139-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi Nizom hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq Qo'mitasining 2012-yil 29-maydagi 221-sonli buyrug'i talablariga qat'iy rioya qilgan holda foydalaniladi.

VII. Talaba-o‘quvchilarning amaliyot davrida odob-axloq qoidalari va kiyim-bosh kiyish tartiblari

1. O‘quvchilar amaliyot davrida davlat soliq xizmati organlarida o‘rnatilgan tegishli tartib-qoidalar hamda ta’lim muassasasida belgilangan odob-axloq qoidalari va kiyim-bosh kiyish tartiblariga rioya etishlari lozim.

VIII. Ichki tartib-qoidalarda belgilangan me‘yorlarning bajarilishini nazorat qilish

1. Ichki tartib-qoidalarda belgilangan me‘yorlarning bajarilishini nazorat qilish ta’lim muassasasining rahbariyati hamda texnikumning xodimlar bo‘limi va mas‘ul xodimlari zimmasiga yuklatiladi.

2. Ta’lim muassasasining har bir xodimlari tomonidan ichki tartib-qoidalarda belgilangan me‘yorlarga amal qilinishi bo‘yicha berilgan ko‘rsatmalar va topshiriqlarni o‘quvchilar so‘zsiz bajarishlari lozim.

IX. Rag‘batlantirish va javobgarlik

1. Ta’lim muassasasi tomonidan mazkur ichki tartib-qoidalarga qat’iy rioya etishi bilan boshqalarga o‘rnak bo‘layotgan, ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik muhitni mustahkamlashda tashabbus ko‘rsatayotgan o‘quvchilarning o‘ziga, ularning ota-onasiga, doimiy yashash joyidagi o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga tashakkurnoma yuborilishi mumkin.

2. O‘quvchilar tomonidan mazkur ichki tartib-qoidalarga rioya etilmaganligi holatlari texnikumdagi Kasaba uyushma, “Yoshlar ittifoqi” boshlang‘ich tashkiloti, Xotin-qizlar va ota-onalar kengashlarida muhokama qilinadi.

3. Ushbu jamoat tashkilotlarining qaroriga binoan o‘quvchining xulq-atvori to‘g‘risida uning ota-onasiga (yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga), doimiy yashash joyidagi o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga ma’lumot tariqasida yozma xabar yuboriladi.

Ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o‘qituvchilari, o‘quvchilari, ichki tartib-qoidalarda belgilangan me‘yor va qoidalarining buzilgan holatlari bo‘yicha zudlik bilan ta’lim muassasasi rahbariyatiga xabar berishi shart; (DSQning 2015-yil 02-maydagi 144-sonli buyrug‘i asosida o‘zgarish)

Ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o‘qituvchilari, o‘quvchilari, tomonidan ichki tartib-qoidalarda belgilangan me‘yor va qoidalar takroran buzilgan yoki unga amal qilinmagan holatlarda ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli choralar qo‘llaniladi.

X. Boshqa qoidalar

1. Ichki tartib-qoidalarida belgilangan me‘yor va qoidalar ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o‘qituvchilari, o‘quvchilari uchun majburiydir.

2. Ta’lim muassasasining ma’muriy-boshqaruv xodimlari, pedagog-o‘qituvchilari, o‘quvchilari mazkur ichki tartib-qoidalar bilan batafsil tanishib chiqishi hamda unga rioya qilishni o‘z zimmasiga olib, imzo qo‘yishi shart.

3. Mazkur ichki tartib-qoidalarining to‘liq matni ta’lim muassasasining ko‘rinarli joyiga ilib qo‘yiladi.

BUXORO SOLIQ TEXNIKUMI JAMOA A'ZOLARI VA O'QUVCHILARNING ODOB-AXLOQ QOIDALARI

**Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,
yo najot, yo-halokat, yo-saodat,
yo-falokat masalasidir.**

A.Avloniy

1.Umumiy qoidalar

1.1 Ushbu professional ta'lim muassasasining (bundan buyon matnda "ta'lim muassasasi" deb yuritiladi) odob-axloq qoidalarini (bundan buyon matnda "qoidalar" deb yuritiladi). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturi, "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarlik profilaktikasi to'g'risida"gi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining tegishli buyruqlari, ta'lim muassasasining nizomi, ichki-tartib qoidalarini hamda umume'tirof etilgan ma'naviy axloqiy tarbiya tamoyillari asosida ishlab chiqilgan.

1.2 Qoidalar ta'lim muassasasining ma'muriyati, o'qituvchilari, xodimlari va o'quvchilari (jamoat a'zolari)ning ta'lim muassasasidagi o'zaro munosabatlari, odob-axloq tamoyillari, rioya etishlari shart bo'lgan xulq-atvor qoidalar va majburiyatlarni belgilab beradi.

1.3 Qoidalar rioya qilish ta'lim muassasasi jamoat a'zolari uchun majburiydir.

1.4 O'quvchilikka va ishga qabul qilinayotgan har bir shaxs qoidalar bilan tanishib chiqish hamda unga rioya qilishni o'z zimmasiga olib, imzo qo'yishi shart.

1.5 Ta'lim muassasasi jamoat, davlat va nodavlat tashkilotlar, ta'lim va ilmiy muassasalar, tadbirkorlik subyektlari, ommaviy axborot vositalari, o'quvchilar va otalarning mazkur qoidalar rioya etishdan manfaatdordir.

1.6 Har bir ta'lim muassasasi rahbari mazkur qoidalarini amaliyotda tadbiq etish bo'yicha ta'lim muassasasining ichki buyrug'ini chiqaradi.

1.7 Qoidaning to'liq matni ta'lim muassasasining ko'rinarli joyda turadi.

2.Maqsad va vazifalar

2.1 Qoidalarning maqsadi - ta'lim muassasasida sog'lom va ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy-axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori bilim va malakaga ega kadrlar tayyorlashga ko'maklashish, ta'lim muassasasining jamiyatdagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzni yanada oshirishdan iborat.

2.2 Qoidalarning asosiy vazifalari

- Yuksak ma'naviy – axloqiy fazilatlarga ega jamiyat davlat va oila oldida o'z ma'suliyatini his etadigan, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vatanparvar va xalqparvar, tashabbuskor va tadbirkor, zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarga ega, irodasi baqquvvat, iymoni butun va vijdoni pok shaxslarni tayyorlash.

- Ta'lim muassasasi jamoa a'zolarining ma'naviy- mafkuraviy imunitetini shakllantirish, saqlash va himoya qilish.

- Yoshlar orasida odob-axloqni buzish, zo'ravonlik, behayollik, shavqatsizlikni tashviqot va amalga oshirishga qaratilgan har qanday xatti- haraktlarning oldini olish yoshlarni ichki bozlik, kashandalik, giyohvandlik illatlari hamda bizga yod diniy ekstramistik ta'sirlaridan, past saviyali "Ommaviy madaniyat" xurujlaridan himoya qilishga ko'maklashishdan iborat.

3.Jamoa a'zolarining odob- axloqiga oid umumiy qoidalar

3.1 Ta'lim muassasasi jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlari hamjihatlik, o'zaro ishonch, hurmat bir-biriga g'amxo'rlik qilish hamda ahil - inoqlikda asoslanishi zarur Jamoa a'zosining sha'ni qadr-qimmatini hurmat qilinishi hamda xalqimizning ma'naviy axloqiy merosini asrab-avaylash maqsadida jamoa a'zolari bir-biriga "Siz" deb murojaat qilish odat tusiga kirishi lozim.

3.2 Ta'lim muassasasida o'zaro munosabatlarning asosiy tamoyillardan biri shuki, bir shaxsning huquqi boshqa shaxsning huquqini poymol qilmasligi lozim. Jumladan, jamoa a'zosining so'z erkinligi unga birovga tuhmat qilish, uni haqorat qilish, o'zaro munosabatlarda umume'tirof etilgan axloq qoidalarini namoyishkorona mensimaslikka ifodalanuvchi bebaho so'zlardan foydalanish huquqini kafolatlamaydi.

3.3 E'tiqod erkinligi ta'lim muassasasiga diniy liboslarida kelish huquqini kafolatlanmaydi.

3.4 Kiyinish erkinligi ta'lim maskaniga tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir qiluvchi kiyimda kelishni kafolatlanmaydi. Jamoa a'zolarining ta'lim muassasasiga quyidagi

ko'rinishda kelishlari ta'qiqlanadi. Odamlar diqqatini tortadigan tanani shaffof ko'rsatib turadigan, yelka, ko'krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qiladigan haddan ziyod tor, diniy ibodat libosida kelish shuningdek metall zanjirlar, tirnog'ichlar, tanada turli munchoqlar qadagan, tana a'zolariga turli rasmlar tasvirini tushurgan, uzun sochlarni yoygan, o'tkir hidli atir upalarni sepgan, tana a'zolari sog'lomlashtirish mashg'ulotlardan boshqa paytda sport kiyimi va poyabzalida kelish.

3.5 Ta'lim muassasasi jamoa a'zolari turli tadbirlar (majlislar, tantanali yig'ilishlar, amaliy uchrashuvlar, bayramlar)da so'zga chiquvchilarga nisbatan hurmat ila munosabatda bo'lish, jamoat tartibiga, maishiy tinchlikka rioya etish shart. Zarurat taqazo etganda, bir notiq o'z so'zini tugatib, boshqasi so'z boshlanishi oralig'idagina zaldan chiqishi mumkin.

3.6 Binolarga kirish joylarida tirbandlik yuzaga kelsa, o'quvchilar o'qituvchi xodimlarni, erkaklar ayollarni o'zlaridan oldin o'tkazib yuborishlari lozim.

3.8 Binoga kirayotgan binolarga kirib chiqishni nazorat qilish uchun mas'ul shaxs yoki navbatchiga o'z shaxsni tasdiqlovchi hujjatni ochiq holda ko'rsatib o'tish zarur. Yoshlar kattalarga birinchi bo'lib yo'l berishlari zarur. Bunda qo'l berib so'rashish istisno bo'lib, Yoshi kattalar birinchi bo'lib qo'l uzatgandagina unga javoban qo'l uzatish mumkin.

3.9 Milliy va umumbashariy qadriyatlarga xos bo'lmagan shuningdek ta'lim muassasining ichki faoliyatiga doir muammo va masalalarni internet tarmog'iga joylashtirish yoki undan turli maqsadlar yo'lida foydalanish taqiqlanadi.

3.10 Kompyuterlarda, uyali aloqa vositalarida va o'zaro munosabatlarda ta'lim muassasasiga tegishli bo'lmagan ma'lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy diniy ma'lumotlar, bebaho suratlar, milliy, irqiy, etnik, diniy adovatni targ'ib etuvchi har qanday materialni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targib etish, qatiyan man etiladi.

3.11 O'quv mashg'ulotlarida, ishga jamoa a'zolarining osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti- xarakatlar (qo'l telefoni, radiopryomnik, televizor, magnitafon va boshqa ovoz kuchaytirish vositalardan maqsadsiz foydalanish) sodir etish taqiqlanadi.

3.12 Ta'lim muassasasi jamoa a'zolari mashg'ulotlar va ishga belgilangan hamda tartibiga ko'ra o'z vaqtiga kelishlari shart.

3.13 Ta'lim muassasasida har qanday huquqbuzarlik sodir etish taqiqlanadi. Shu jumladan, tuhmat qilish, haqorat qilish, jamoa a'zosiga ma'naviy yoki moddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotni tarqatish, tan jarohati yetkazish, fuqorolik muomalasidan chiqarilgan vositalarga oid munosabatlarga kirishish (giyohvand moddalar, psixotropik vositalar va h.k) ichki bozlik, kashandalik, maishiy tinchlikka tajavuz qilish, janjallashish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'ynash qat'iyan man etiladi.

4. O'qituvchilar va o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayondagi o'zaro munosabatlari

4.1 O'qituvchilar va o'quvchilarning ta'lim –tarbiya jarayondagi o'zaro munosabatlari “ustoz-shogird” milliy an'analarga asoslanishi lozim.

4.2 O'qituvchi auctoriyaga kirganiga barcha o'quvchilar o'rinlaridan turib salomlashishlari, so'ngra o'z joylarini egallashlari lozim.

4.3 Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun taqiqlanadi.

4.4 O'quvchi o'zining nojo'ya harakatlari bilan dars mashg'ulotlariga xalaqit bersa, o'qituvchi yuzaga kelgan vaziyat haqida rahbariyatini xabardor qilishi zarur.

4.5 O'quvchida o'qituvchi bilan o'quv mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, unda o'quvchi quyidagi qoidalarni, ya'ni:

- O'qituvchi o'quvchi bilan dars jadvaliga muvofiq mashg'ulotlarda, maslahat soatlarida, mustaqil ishlarni, reyting nazoratini topshirishda yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda shug'ullanishini,

- o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan o'qituvchining lavozimi, ismi, otasining ismi va familiasini aniq bilishi shart.

4.6 O'quvchi oldindan kelishilmagan holda o'qituvchining huzuriga kelsa, umumiy yoki o'zaro kelishilgan maslahat soatiga kech qolib kelgan yoki kelmagan bo'lsa, o'qituvchida hatto qisqa vaqt suhbatlashishni talab qilishga ham haqli emas.

4.7 O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida reyting nazoratini topshirishga doir ziddiyat kelib chiqqan hollarda, o'quvchi reyting nazoratini maxsus komissiyasiga topshirishi uchun ruhsat berish iltimosi bilan guruh rahbari yoki o'quv bo'limiga murojaat etishi mumkin. Bunda murojaat asoslangan bo'lishi shart. Bunday masalalar guruh rahbari yoki bo'lim boshlig'ining taqdimnomasiga binoan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan hal etiladi.

5. O'qituvchilarning o'zaro munosabatlari

5.1 O'qituvchilarining o'zaro munosabatlarida – yagona jamoa, o'zaro hurmat va e'tibor, do'stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillari amal qilishi lozim.

5.2 O'qituvchilar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik , bebaho so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iyman etiladi.

5.3 O'qituvchilar o'z shaxsiy muammolarini o'quvchilar oldida muhokama qilmasliklari kerak.

6.O'quvchilarning o'zaro munosabatlari

6.1 O'quvchilar munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik qilish, shaxsiyatini kamsitish, o'zganing intellektual mulkini o'zlashtirib olish, qo'pollik , bebaho so'zlar ishlatish, mushtlashish, o'zgalarga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy ziyon yetkazish qat'iyan man etiladi.

6.2 O'quvchilar o'z shaxsiy muammolarini guruhda muhokama qilmasliklari lozim.

7. O'qituvchilarining odob-axloqqa oid majburiyatlari

- odob-axloq qoidalariga rioya qilishda o'quvchilarda namuna bo'lish:
- ta'lim muassasasi manfaatlariga zid bo'lgan xatti- harakatlaridan o'zlarini tiyish:
- biror-bir noxush voqea yoki hodisa ro'y bersa, zudlik bilan u haqida ta'lim muassasasi rahbariyatiga xabar berish:
- ta'lim muassasasi sha'ni va nufuziga dog' tushiradigan har qanday holatlarining oldini olish:
- ta'lim muassasasi to'g'risidagi axborotlardan uning manfaatlari va obro'siga ziyon yetkazish uchun yoki o'z manfaatlari yo'lida foydalanmaslik:
- dars jarayonida o'quvchilarga odob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni targ'ib qilish:
- yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichki bozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlaridan, "Ommaviy madaniyat" hurujlaridan ogoh etib borish:
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqishga ko'maklashish.

8.O'quvchilarning odob-axloqqa oid majburiyatlari

a) ta'lim muassasasi hududida

- hududga kirishga o'quvchilik guvohnomasini ko'rsatib kirish ;
- hududni ifloslantirmaslik va chiqindilarni faqat joylardagi maxsus idish (urna)larga tashlash:
- ustozlarga duch kelganda salom berish:
- o'quv mashg'ulotlari vaqtida hududda sababsiz yurmaslik:

- ta'lim muassasasi mulki (ko'char va ko'chmas mulki, o'simlik va hayvonot dunyosi)ga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- kiyinish va o'zaro suhbat madaniyatiga rioya qilish:

- mutasaddilarining turli sifatsiz reklamalarni olmaslik;

- maishiy tinchlikka rioya qilish;

- narkotik va psixotrop moddalar, alkogol va tamaki mahsulotlar iste'mol qilinishi hamda tarqatishiga qarshi kurashish. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuqoridagi hollatlar haqida tegishli tashkilotlarga o'z vaqtida xabar bermaslik javobgarlikka sabab bo'lishi alohida qayd etiladi.

b) auriyada;

- uyali aloqa vositalarini o'chirib qo'yish;

- dars vaqtida gaplashmaslik ;

- jihozlarda madaniy munosabatda bo'lish, partalarga yozmaslik;

- qog'oz va boshqa keraksiz narsalarni qoldirib ketmaslik;

- ovqatlanmaslik saqich chaynamaslik;

- o'quvchilar mashg'ulot va faoliyatidan kelib chiqib maxsus formada bo'lishlari shart.

d) umumiy ovqatlanish joylarida;

- taomlarni olishda navbat tartibiga rioya qilish;

- tirbandlik holatiga ustozlar, ayollar, yoshi kattalarga va tengdoshlarga hurmat ko'rsatish;

- ovqatlanish vaqtida shovqin solmaslik;

e) axborot resurs markazida;

- ARM xodimlari bilan xushmuomalada bo'lish;

- kitoblar va jihozlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- axborot resurs markazida kompyuter jihozlaridan ehtiyotkorona foydalanish;

- baland ovozda so'zlamaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslik;

- qog'oz saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslik;

- kitoblarni olish va topshirish tartib qoidalarga rioya qilish;

9. O'qituvchi va o'quvchi odob axloqiga man etiladigan holatlar

O'qituvchilarga

- jamo'a a'zolarining shaxsiyati va qadr-qimmatini kamsitish, o'zgalarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslik;
- jamo'a a'zolari va boshqalar ustidan turli ig'vo g'iybat va bo'htonlar uyushtirish;
- o'quvchilar bilan o'z hamkasblarining kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilish;
- o'quvchilarni assosiz o'quv mashg'ulotlaridan chiqarib yuborish;
- o'quv mashg'lotlari vaqtida diniy tashviqot olib borish;
- o'quv mashg'ulotlarida mast, soch-soqol olinmagan va kiyinish tartibiga rioya qilinmagan holda kiyinish;
- ta'lim muassasasi hududida ichish, chekish, kabilar qat'iyan man etiladi.

O'quvchilarga

- o'qituvchilarga qo'pollik qilish, mashg'ulotlar vaqtida suhbatlashish;
- o'qituvchi va xodimlar bilan boshqalarining bahosini muhokama qilish;
- yolg'on gapirish, g'irromlik yoki o'qituvchilarni chalg'itish bilan bog'liq har qanday xatti-harakatlar qilish;
- yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir boshqa tartib tamoyillarni bajarish vaqtida chetdan yordam olish, o'zgalarda yordam berish.
- boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o'z nomidan topshirish;
- mashg'ulotlarni o'tkazib yuborish yoki kechikib kelish;
- moddiy yaxshi ta'minlanganligini turli yo'llar bilan ko'z-ko'z qilish qat'iyan man etiladi.

10. Rahbariyat, o'qituvchilar va xodimlar o'rtasidagi odob-axloqqa oid munosabatlar

10.1 Rahbariyat, o'qituvchilar va xodimlar o'rtasidagi munosabatlar o'zaro hurmat, ahillik, mehnatsevarlik, bag'rikenklik, insonparvarlik, g'amxo'rlik va adolat tamoyillariga asoslanadi.

10.2 Rahbariyat, o'qituvchilar va xodimlarning ish faoliyatiga doir masalalar bo'yicha hamkorlik qilishda bir tarafning boshqa tarafga tazyiq o'tkazishiga yoki unga

harakat qilishga, shuningdek, adolat tamoyillariga va ta'lim muassasasi manfaatlarga zid bo'lgan qarorlar tayyorlanishiga yo'l qo'ymaydi.

10.3 Lavozim darajalari teng bo'lgan xodimlar o'rtasidagi muammolarni ishchi tartibda hal etish tavsiya etiladi.

10.4 Jamoada biron-bir masala bilan rahbariyatga murojaat qilish tartibi o'zaro hurmat tamoyili asosida tashkil etiladi.

10.5 O'qituvchi va xodimning ta'lim muassasasida ma'naviy-axloqiy va psixologik muhitni yanada yaxshilash bo'yicha g'oyalari rag'batlantiradi.

10.6 Rahbariyat, o'qituvchilar va xodimlarining kasbiy va intellektual jihatidan rivojlantirishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog'idan, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanish, shuningdek, hordiq chiqarishda dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha imtiyozlarni yaratib beradi.

11. Rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi

11.1 O'quv yili davomida "Qoidalar"ga to'la rioya qilgan, ta'lim muassasida yuksak ma'naviy –axloqiy va psixologik muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga xizmat qilgan jamoa a'zolari, kafedra mudirlari, va bo'lim boshliqlari, tavsiyaga binoan ta'lim muassasasi ichki-tartib qoidalariga muvofiq moddiy yoki ma'naviy rag'batlantiradi.

11.2 Jamoa a'zolari ushbu "Qoidalar"ni buzganida, ta'lim muassasasi ichki-tartib qoidalarida keltirilagan holatlar bo'yicha choralar ko'riladi. Shuningdek, jamoa a'zosining xulq-atvori ustidan jamoat nazoratini ta'minlash maqsadida, mazkur qoidalariga rioya etilmaganligi holatlari ta'lim muassasasida kasaba uyushma qo'mitasi, "Yoshlar ittifoqi", xotin-qizlar va "ota-onalar" kengashlarida ham muhokama qilinishi va ularning qaroriga binoan jamoa a'zosining xulq-atvori to'g'risida u yashab turgan mahalla fuqorolar yig'iniga ma'lumot tariqasida xabar yuborish amaliyoti ham joriy etilishi mumkin.